# Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

## “Qishloq xo‘jaligi fanlari” yo‘nalishi

| Loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
|---|---|
| **O‘zbekistonning turli hududlarida *Rosa canina L.* o‘simligida uchraydigan viruslarni aniqlash, tezkor molekulyar diagnostika PSR test tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish**<br> | **Tadqiqot shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy tadqiqot natijalari:**<br>-Respublikamizning turli hududlarida yetishtirilayotgan **“*Rosa canina* L. o‘simliklariga** viloyatlar kesimida fitosanitar, virusologik monitoring ishlari olib borilib,laboratoriya tadqiqotlari uchun namunalar yig‘ib kelinadi;<br>-**Rosa canina L. o‘simligidan** namunalar immunologik hamda molekulyar-genetik usullar yordamida diagnostika qilish orqali viruslarning tarqalish darajasi aniqlanadi hamda tarqalgan hududlarning GPS koordinatalari orqali belgilanib xaritasi ishlab chiqiladi;<br>-fitopatogen viruslarni ajratib olish va ularni biologik va molekulyar-genetik usullar yordamida identifikatsiya qilish orqali genetik xilma-xilligi aniqlanadi hamda ba’zi biologik, fizik xususiyatlarini o‘rganiladi;<br>-PSR asosida tezkor molekulyar diagnostika test tizimi ishlab chiqiladi, bu tizim Rosa canina L. o‘simligida virus kasalliklarini erta va aniq aniqlash imkonini beradi.<br>- Rosa canina L. o‘simligida uchraydigan virus kasalliklarini oldini choralarining tavsiyalari ishlab chiqiladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish.** Olingan natijalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini agentligini markaziy va hududiy laboratoriyasida hamda Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida **Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini agentligi** yoki **Qishloq xo‘jaligi vazirligi**ning xulosasi olinadi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini agentligi** yoki **Qishloq xo‘jaligi**ning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi. |